



## IJTIMOIIY SUG'URTA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH OMILI SIFATIDA

PhD **Javliyev Nuriddin**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-4758-4594

[n.javliev@tsue.uz](mailto:n.javliev@tsue.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy sug'urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish istiqbollari ilmiy-nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. 2025-yil 9-dekabrda "Davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi O'RQ-1101-sonli Qonun asosida 2026-yildan boshlab homiladorlik va tug'ish nafaqasi, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi va keyinchalik ishsizlik nafaqasi kabi ijtimoiy xatarlarni qoplash mexanizmlari joriy etilmoqda. Maqolada mavjud pensiya tizimining cheklovlari, yangi tizimning iqtisodiy-sotsial samaradorligi, demografik bosim va moliyaviy barqarorlik masalalari ko'rib chiqiladi. Empirik tahlil uchun Davlat statistika agentligi, Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlari asosida jadvallar va grafiklar keltirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy sug'urta tizimi rasmiy bandlikni rag'batlantirish, kambag'allik xavfini kamaytirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi, ammo informal sektor va demografik qarish kabi qiyinchiliklarni bartaraf etish zarur.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy sug'urta, sug'urta ballari, shaffoflik, manzilli yordam, davlat subsidiyalari, ijtimoiy himoya, kambag'allik, institutsional islohotlar, raqamlashtirish, inson kapitali.

## СОЦИАЛЬНОЕ СТРАХОВАНИЕ КАК ФАКТОР СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ

PhD **Жавлиев Нуриддин**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В данной статье научно-теоретически и эмпирически анализируются перспективы поэтапного внедрения системы государственного социального страхования в Республике Узбекистан. На основе Закона Республики Узбекистан «О государственном социальном страховании» № O'RQ-1101 от 9 декабря 2025 года с 2026 года вводятся механизмы покрытия таких социальных рисков, как пособие по беременности и родам, пособие по временной нетрудоспособности, а в дальнейшем — пособие по безработице. В статье рассматриваются ограничения действующей пенсионной системы, экономико-социальная эффективность новой системы, вопросы демографического давления и финансовой устойчивости. Для эмпирического анализа приведены таблицы и графики на основе данных Государственного агентства статистики, Всемирного банка и Международной организации труда. Результаты исследования показывают, что система социального страхования играет важную роль в стимулировании формальной занятости, снижении рисков бедности и поддержке экономического роста, однако необходимо преодолеть такие вызовы, как неформальный сектор и демографическое старение.

**Ключевые слова:** социальное страхование, страховые баллы, прозрачность, адресная помощь, государственные субсидии, социальная защита, бедность, институциональные реформы, цифровизация, человеческий капитал.

## SOCIAL INSURANCE AS A FACTOR OF SOCIAL PROTECTION OF THE POPULATION

PhD Javliyev Nuriddin  
Tashkent State University of Economics

**Abstract.** This article provides a scientific-theoretical and empirical analysis of the prospects for the gradual introduction of the state social insurance system in the Republic of Uzbekistan. Based on the Law of the Republic of Uzbekistan "On State Social Insurance" No. ORQ-1101 dated December 9, 2025, mechanisms for covering such social risks as maternity and childbirth benefits, temporary disability benefits, and later unemployment benefits are being introduced starting from 2026. The article examines the limitations of the existing pension system, the economic and social effectiveness of the new system, issues of demographic pressure, and financial sustainability. For the empirical analysis, tables and graphs based on data from the State Statistics Agency, the World Bank, and the International Labour Organization are presented. The research findings indicate that the social insurance system plays a significant role in promoting formal employment, reducing the risk of poverty, and supporting economic growth. However, challenges such as the informal sector and demographic aging need to be addressed.

**Keywords:** social insurance, insurance points, transparency, targeted assistance, state subsidies, social protection, poverty, institutional reforms, digitalization, human capital.

### Kirish.

Ijtimoiy sug'urta maqsadi aholini turli xavf-xatarlar jumladan, mehnatga layoqatlilikni, daromadni yo'qotish kabi xavf-xatarlar ijtimoiy himoyalash hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urtaning muhim jihati shundaki, u ish beruvchi va yonlanma ishchilarning maqsadli badallari asosida shakllangan maxsus budjetdan tashqari fondlar tomonidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sug'urta tizimi: sug'urta to'lovi miqdori va sug'urta muddati bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy sug'urta fondlarining muhim jihati ish beruvchi va yonlanma ishchilarning birdamlik tamoyiliga asoslanganligi ularni boshqarishning xususiyatini belgilab beradi. Aholini ijtimoiy himoya qilishning shakllari ijtimoiy himoya idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy himoya institutlari faoliyatini taxlil etishda ijtimoiy xavf-xatarlar tarkibiga ijtimoiy rivojlanishning boshqa omillari bilan belgilashni e'tiborga olish kerak. Real voqelikda inson hayotiga tahdid soluvchi ijtimoiy xavfxatarlardan insonni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish, uning ko'lami va vositalarini tanlashga mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy va demografik omillar ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatda demografik vaziyat ijtimoiy himoya ob'ektini belgilagan holda asosiy parametrlarini tavsiflaydi. Iqtisodiy omillar ijtimoiy himoya moddiy asosini belgilaydi, ijtimoiy kompleks, mehnat resurslarini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni belgilaydi, shaxsiy va ijtimoiy farovonlik darajasini ta'minlaydi, aholining ijtimoiy tabaqalanishining asoslarini yaratadi. Jamiyat rivojlanishi bilan aholining majburiy ijtimoiy sug'urtalanlik darajasining oshishi, ijtimoiy sug'urta dasturlarining kengayishi, to'lanadigan pensiya, nafaqalar miqdorini o'sishi, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatining yaxshilanishi, ularning qiymati va aholi real daromadlarining ko'payishi tufayli ijtimoiy sug'urtaning mavqei sezilarli ortib bordi. Ijtimoiy sug'urta ijtimoiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib uning muhim iqtisodiy funksiyalaridan biri, u mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarini yaratish, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, ijtimoiy birdamlikni shakllantirish va uni saqlab qolishning dastlabki shartlaridan biri hisoblanadi.

### Adabiyotlar sharhi.

Ijtimoiy sug'urta tizimi zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda muhim institut sifatida qaralib, uning ahamiyati turli iqtisodiy maktablar vakillari tomonidan turlicha talqin etiladi. Biroq aksariyat iqtisodchi olimlar ijtimoiy sug'urtani ijtimoiy xavflarni boshqarish, daromadlar barqarorligini ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishning muhim vositasi sifatida e'tirof etadilar.

Klassik iqtisodchilar davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash tarafdori bo'lgan bo'lsalar-da, keyinchalik neoklassik iqtisodchilar ijtimoiy sug'urtaning zarurligini tan oldilar. Xususan, Arrow (1984) sug'urta bozorlarida axborot nomukammalligi va risklarning noaniqligi sababli davlat ishtiroki zarurligini asoslab bergan.

Farovonlik iqtisodiyoti tarafdorlari ijtimoiy sug'urtani ijtimoiy adolatni ta'minlashning muhim vositasi sifatida ko'radilar. Pigou va uning izdoshlari (2018) daromadlarni qayta taqsimlash orqali jamiyat farovonligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydilar.

Nobel mukofoti laureati Nort (2015) ijtimoiy sug'urtani iqtisodiy rivojlanishga ta'sir qiluvchi muhim institut sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, samarali ijtimoiy sug'urta tizimi:

- davlat va jamiyat o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi,
- ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi,
- uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

2017-yilgi Nobel mukofoti g'olibi R. Taler (2025) insonlar ko'pincha uzoq muddatli risklarni yetarli darajada baholay olmasligini ta'kidlaydi. Shu sababli ijtimoiy sug'urta tizimi:

- majburiy jamg'arma mexanizmini ta'minlaydi,
- kelajakdagi risklardan himoya qiladi,
- moliyaviy barqarorlikni oshiradi.

N. Bolotina (2005) fikricha "ijtimoiy himoya tushunchasi ijtimoiy xavfxatarning salbiy oqibatlaridan xavfsizligini ta'minlash uchun davlatning ijtimoiy himoyalash faoliyatidir". Ikkinchi tarifga asosan ijtimoiy himoya davlatning ijtimoiy funksiyalari mazmuni va mamlakatda fuqarolarning asosiy ijtimoiy huquqlarini ta'minlash bo'yicha iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy choralar tizimi hisoblanadi. Ijtimoiy himoya aholini ijtimoiy risklarning salbiy oqibatlaridan himoyalash uchun huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy vosita va choralar tizimini qamrab oladi. Iqtisodiy adabiyotda "ijtimoiy himoya" va "ijtimoiy havfsizlik" tushunchalari turli ilmiy tortishuvlarga sabab bo'ladi. Ayrim iqtisodchilar ushbu tushunchalarni sinonim desalar, boshqalar esa ijtimoiy himoya ijtimoiy xavfsizlikni ham qamrab oluvchi kengroq tushuncha, deb hisoblaydilar. "Ijtimoiy himoya" tushunchasi ijtimoiy ta'minot bilan birgalikda ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning bepul uy-joy olish huquqini, turmush darajasi, sog'liqni saqlashga bo'lgan huquqni, ta'lim olish huquqini o'z ichiga qamrab oladi.


### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiya hamda boshqa ilmiy-tadqiqot usullari keng qo'llanildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ijtimoiy sug'urta ijtimoiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib uning muhim iqtisodiy funksiyalaridan biri, u mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarini yaratish, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, ijtimoiy birdamlikni shakllantirish va uni saqlab qolishning dastlabki shartlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta aholini turli xavf-xatarlardan ijtimoiy himoyalash vositasi bo'lib, ishdan bo'shash, mehnatga layoqatlilik, daromadni yo'qotish kabi xavf-xatarlar yig'indisi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta ish beruvchi va yollanma ishchilarning maqsadli badallari asosida shakllangan maxsus budjetdan

tashqari fondlar tomonidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sug'urta tengsizlik qoidasi asosida tuziladi hamda sug'urta to'lovi hajmi va sug'urta muddati bilan bog'liq bo'ladi.




**1-rasm. Ijtimoiy sug'urtaning xususiyatlari**

Ijtimoiy sug'urta tizimi ikki qismdan: birinchidan, ishlovchilarning mehnat qobiliyatini qayta tiklash va uni saqlashni ta'minlash; ikkinchidan, mehnat qobiliyatini yo'qotganlar yoki mehnat qobiliyatiga ega bo'lmaganlarni moddiy ta'minotni kafolatlashdan iborat. Ijtimoiy sug'urta tizimini moddiy asosini sug'urta jamg'armalari tashkil etib, uch manbalardan ishlovchilarning sug'urta badallari, ish beruvchining badallari va davlatbyudjetidan ajratilgan subsidiyalardan shakllantiriladi. Ijtimoiy sug'urta fondlarining muhim jihati ish beruvchi va yollanma ishchilarning birdamlik tamoyili asosida boshqariladi. Sug'urta jamg'armalari o'zini o'zi boshqarish va notijorat xo'jalik yuritish qoidasi asosida ishlaydi. Mehnatga layoqatlikni va daromadni yo'qotishga ta'sir etuvchi ijtimoiy xavf-xatarlarga: kasallik, ishlab chiqarishdagi jarohat, kasbiy kasallik, baxtsiz hodisa, onalik va bolalik, ishsizlik, qarilik, boquvchisini yo'qotishlar kiradi.

Sug'urtalangan ishchilar to'laydigan sug'urta badallari maqsadli daromad solig'i hisoblanadi va ularning oladigan daromadlaridan olib qolinadi. Sug'urta badali stavkasi yalpi ish haqiga nisbatan foizlarda aniqlanadi va aksariyat holatlarda daromadning kattaligiga bog'liq bo'lmaydi. Majburiy ijtimoiy sug'urta mablag'lari ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirishda imtiyozli yordam ko'rinishida ishlatiladi. Majburiy ijtimoiy sug'urta fuqarolarning yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, yashash joyi, daromadidan qat'i nazar ijtimoiy sug'urta kafolatlarini (pensiya, nafaqa va xizmat) ma'lum miqdorini olishni ta'minlashga qaratilgan. Majburiy ijtimoiy sug'urtaga mehnat qiluvchi va uning oilalarini qarilikda, kasallik hollari, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, onalik va bolalikni muhofaza qilishda moddiy ta'minlovchi davlat kafolat tizimi sifatida qaraladi. Majburiy ijtimoiy sug'urta mablag'lari korxonalar, muassasalar, tashkilotlar yollanma ishchining maqsadli soliqlari, yakka tadbirkorlarning badallari va davlat subsidiyalari hisobidan shakllantiradi.

Ijtimoiy sug'urta tizimi ikki qismdan: birinchidan, ishlovchilarning mehnat qobiliyatini qayta tiklash va uni saqlashni ta'minlash; ikkinchidan, mehnat qobiliyatini yo'qotganlar yoki mehnat qobiliyatiga ega bo'lmaganlarni moddiy ta'minotni kafolatlashdan iborat. Ijtimoiy sug'urta tizimini moddiy asosini sug'urta jamg'armalari tashkil etib, uch manbalardan ishlovchilarning sug'urta badallari, ish beruvchining badallari va davlatbyudjetidan ajratilgan subsidiyalardan shakllantiriladi. Ijtimoiy sug'urta fondlarining muhim jihati ish beruvchi va yollanma ishchilarning birdamlik tamoyili asosida boshqariladi. Sug'urta jamg'armalari o'zini

o'zi boshqarish va notijorat xo'jalik yuritish qoidasi asosida ishlaydi. Mehnatga layoqatlilikni va daromadni yo'qotishga ta'sir etuvchi ijtimoiy xavf-xatarlarga: kasallik, ishlab chiqarishdagi jarohat, kasbiy kasallik, baxtsiz hodisa, onalik va bolalik, ishsizlik, qarilik, boquvchisini yo'qotishlar kiradi. Sug'urtalangan ishchilar to'laydigan sug'urta badallari maqsadli daromad solig'i hisoblanadi va ularning oladigan daromadlaridan olib qolinadi. Sug'urta badali stavkasi yalpi ish haqiga nisbatan foizlarda aniqlanadi va aksariyat holatlarda daromadning kattaligiga bog'liq bo'lmaydi.



2-rasm. Ijtimoiy sug'urta turlari

Ijtimoiy sug'urta to'lovlari miqdori ma'lum me'yor darajasida bo'lishi lozim. Jumladan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining «Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida»gi Konvensiyasida ijtimoiy himoyaning 9 turi ko'rsatib o'tilgan: tibbiy xizmat, ishsizlik bo'yicha, ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar bo'yicha, nogironlik bo'yicha, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha, homiladorlik va tug'ruq holati bo'yicha, kasallik bo'yicha nafaqalar, oilalar uchun nafaqalar va yoshga doir pensiyalar. Xalqaro xujjatda aksariyat mamlakatlarda alohida e'tiborga molik bo'lgan kambag'al aholi qatlamiga va uy joyga boshpanasizlarga ijtimoiy himoya toifalari bo'yicha XMTning 102-sonli Konvensiyasi ro'yxatiga kiritilmagan. Ushbu qabul qilingan Konvensiya asosida ko'plab mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish borasida milliy qonunchilik hujjatlari shakllantirildi.

### Xulosa va takliflar.

Aholini ijtimoiy himoya qilish keng tushuncha bo'lib, davlatning bevosita aniq maqsadli, aholining normal yashash sharoitlarini ta'minlovchi kafolatlar tizimidir. Aholini ijtimoiy himoya qilish keksalikni, mehnatga layoqatsizlikni yoki boquvchisini yo'qotishni sug'urtalash, kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy to'lovlar, vaqtinchalik ishsizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, onalikni himoya qilish, ta'lim olayotgan yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash, nogironlikning oldini olish va mehnat qobiliyatini tiklash tizimi orqali ta'minlanadi. Ijtimoiy himoyaning bosh maqsadi aholi farovonligining yaxshilanishini ta'minlash, aholi

qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini ta'minlashga yordam berishdan iborat. Ijtimoiy sug'urtaga xos bo'lgan eng muhim xarakterli belgilarning birinchisi ularning, eng avvalo, aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilishga qaratilganidir. Ijtimoiy sug'urta ijtimoiy himoyaga muhtoj turli aholi qatlamini moddiy qo'llab-quvvatlanishini nazarda tutadi va shu nuqtai nazardan maxsus jamg'armaga ega bo'lmog'i lozim. Bu jamg'arma mablag'lari ish beruvchilar, shuningdek sug'urta qilingan xodimlarning badallari hisobidan shakllantiriladi. Demak, ijtimoiy sug'urta badallarga asoslanadi. Bu uning ikkinchi muhim xarakterli belgisi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta aholini turli xavf-xatarlardan, ijtimoiy risklardan himoyalash shaklidir. Bu – ijtimoiy sug'urtaga tegishli uchinchi muhim xarakterli belgi. Barcha xodimlar davlat yo'li bilan ijtimoiy sug'urta qilinishlari lozimligi, ya'ni majburiyligi ijtimoiy sug'urtaning to'rtinchi muhim xarakterli belgisi deyish mumkin. Ijtimoiy sug'urta aksariyat mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida eng keng tarqalgan va muhim element sifatida ko'riladi hamda mehnatga layoqatsizlarni moddiy ta'minlashning qat'iy kafolatli tizimini anglatadi. Ijtimoiy sug'urta davlat tomonidan joriy etilib, keksalar, mehnatga layoqatsizlarni ta'minlash va ularga yordam ko'rsatish tizimini namoyon qiladi.

#### ***Adabiyotlar/ Литература/References:***

*Arrow, K.J. (1984) Collected papers of Kenneth J. Arrow. UK: Blackwell.*

*Lovejoy Knight, K. (2018) A.C. Pigou and the "Marshallian" thought style: A study in the philosophy and mathematics underlying Cambridge economics. Germany: Springer International Publishing.*

*Thaler, R.H. and Imas, A. (2025) The winner's curse: Behavioral economics anomalies, then and now. United States of America: Simon & Schuster.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (n.d.) Rasmiy web sayti. Available at: <https://ihma.uz/>*

*Альманах Центра исследований экономической культуры факультета свободных искусств и наук 2014 (2015). Россия: ЛитРес.*

*Болотина, Н.Б. (2005) Право социальной защиты: учеб. пособие. Москва: Знание, с. 405.*